

## **MAHALLALARDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH**

**Xo'shboqov Kamoliddin Abdulatif o'g'li**

*Termiz davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

E-mail: kamolxoshboqov1995@gmail.com

**To'rayev Parda Bahtiyor o'g'li**

*Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi*

Insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida odamlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o'qishi va mehnat faoliyatida qanchalik afzalliklar yuzaga kelgan bo'lmasin, shu barobarida turli-tuman muammolar ham shakllanayotganligini tan olish zarur. Mazkur muammolarning aksariyati insonlar hayoti va faoliyatiga daxldor bo'lganligi uchun psixologik muammolar hisoblanadi. Shu bois, har bir muammoni yechishda psixologik bilimlarga tayanish, psixolog mutaxassislar maslahatiga amal qilish yaxshi samara berayotganligi insonlar hayoti va jamiyat taraqqiyotida ko'p bora o'z isbotini topgan. Hozirgi davrda insonlar uchun psixologik xizmat ko'rsatishning besh yo'nalishi amaliyotda keng joriy etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Psixologik maorif va ma'rifikat; 2. Psixodiagnostika; 3. Psixoprofilaktika;
4. Psixokorreksiya va psixik rivojlantirish; 5. Psixologik maslahat.

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Jahon mamlakatlari amaliyotida psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari mazmuni, tarkibiy kismlari to'g'risida muhokama kilinayotganda, uning tuzilishi ijtimoiy turmushning barcha jabhalariga oid faoliyat turlariga taalluqli tomonlarini qamrab olinishi nazarda tutilgan edi. Jahondagi sivilizatsiyalashgan mamlakatlarning har bir oilasida kompakt tarzda psixologik xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda psixologik xizmatni yo'lga qo'yish maqsadida hozirgi davrda aksariyat universitetlarda psixolog mutaxassislar tayyorlanmokda. Psixolog mutaxassislarning faoliyat doirasi shunchalik kengki, uning tarkiblari oddiy shaxslararo munosabatdan boshlanib davlat ahamiyatiga bog'lik muammolar hal qilinishida bevosita ishtiroy etadi. Mahallalarda psixologik xizmat ko'rsatish tizimining yaratilishi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Insondagi ijtimoiy faollik, mehnatga ijodiy yondashish, hur va teran fikrlilik, iymon va ertangi kunga ishonch kabi xislatlarning shakllantirilishi va bu xislatlarni shakllantirishda avvalo, ijtimoiy institatlarda, ya'ni mahallarda, oilada psixologik xizmatni yulga qo'yish va bu boradagi malakalarni oshirishning psixologik omillarini o'rganib, shu yul bilan yoshlarni sog'lom dunyoqarashga ega bo'lishga

yo‘naltirish ishi ham mustaqilligimizni mustahkamlashning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Psixologik xizmat ko‘rsatish qaysi shaklda olib borilmasin, u jamiyat taraqqiyotida inson omilidan unumli foydalanish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘ladi. Insonga individual munosabatda bo‘lish, demak uning hissiyoti, kechinmalari, ustakovkasi, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlari sohalariga chuqur kira bilishni talab kiladi. Buning uchun esa psixologik sezgirlik va intuisiyaning uzi yetarli emas, shuning uchun psixolog tomonidan maxsus psixodiagnostik metodlarini qo‘llash va uning natijalarini maxsus tahlil qilish talab kilinadi. Qolaversa, keyingi vaqtarda fan va texnikaning rivojlanishi, ishlab chiqarish texnologiyalarning jadal sur’atlarda o‘sib borishi mahallalarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Mahallalarda yashayotgan odamlardagi tuyg‘ularni barqarorlashtirish, kelajakka umid, intilish, ishonch hislarini shakllantirish, ona zaminga mehmonga emas, balki mezbon, hukmron sifatida o‘ziga-o‘zi tasalli berish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj yanada kuchaymokda. Shu sababli biz mahallalarda ruhshunoslik tizimiga daxldor bo‘lgan ayrim mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

- Jumladan:
- Mahallalarda osoyishta, xotirjam, samimiyl psixologik muhitni vujudga keltirish bo‘yicha ishlar olib borish;
  - Mahalla fuqarolari o‘rtasida shaxslararo munosabatning eng odil, eng adolatli, eng omilkor usullarini oqilona qo‘llashni amalga oshirish;
  - Mahallalarda o‘zaro munosabatlardagi emosional zo‘riqishni bartaraf etishning psixologik chora-tadbirlarini yulga kuyish;
  - Jonli davra suhbatlari o‘tkazish, axborot taqchilligining oldini olish uchun hamkorlikni vujudga keltirish, uchrashuvlar, kechalar o‘tkazish;
  - Oilalarda milliy qadriyatlarning shakllanganlik holati, “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushganlik va moyillik;
  - Muvoffaqiyatsizlikka uchragan insonlarga psixologik yordam ko‘rsatish, ularni ruhiy krizis holatidan olib chiqish;
  - Turmush qiyinchiliklari va oilalarda uchrab turadigan nizolarni sababchi faktorlarini diagnostika qilish va korreksion tadbirlar;
  - Ichkilik, giyohvandlikka moyil shaxslarni tobelik va moyillik faktorlarini aniqlash va oldini olish choralarini ishlab chiqish;
  - Diniy ekstremizm va boshka oqimlarning paydo bo‘lishi va ularning oldini olishda mahallada psixoprafilaktik ishlar olib borish.

Shular bilan birga mahalladagi yoshlarning alkogolizm, giyoxvandlik, jinoyatchilikka munosabatini aniqlash maqsadida psixodiagnostik metodikalar majmuasini tayyorlash hamda bu metodikalar natijalarini yoshlarni tarbiyalash vositasi sifatida ommalashtirishdan iborat. Respublikamiz sharoitida bu

muammolarning ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik xususiyatlarni yetarli darajada o‘rganilmaganligi bu masalalarning dolzarbligini kursatadi. Xulosa qilib aytganda, mahallalarda psixologik xizmatni tashkil etish to‘g‘risida ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar yaratish, ushbu yunalish bo‘yicha psixologlar faolligini oshirish va ommaviy axborot vositalari orqali muntazam targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish muhimdir. Bu masalaga ommaviy tarzda e’tibor qaratilsagina oilamiz mustahkam, mahallalarimiz tinch, farzandlarimiz sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.T.: „O‘zbekiston”,2005.96-bet.
2. G’oziyev E. G’ Umumiy psixologiya.Toshkent.2007.1-2-kitob.
3. G’oziyev E. G’,Toshimov R.Menejment psixologiyasi.T-2002
4. G’oziyev E.G Muomala psixologysi.T-2001
5. Karimova V. M . Mustaqil fikrlash .-T.:Universitet,2002.
- 6.Kamoliddin Khushbokov. (2023). PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN. Academia Science Repository, 4(04), 165–170.
- 7.Khushbokov, K. (2023). PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF ACHIEVEMENTS AND PROSPECTIVE TASKS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 2(11), 54-59.
8. Xo‘Shboqov Kamoliddin Abdulatif O‘G‘Li (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (11), 131-136.
9. KHUSHBOKOV, K. (2023). FORMATION OF COGNITIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN. World Bulletin of Social Sciences, 20, 86-89.